


QISQACHA BAYONOT

Ushbu Yerni O'zlashtirish va Turmush Tarzini Tiklash Rejasi (YO'TTTR) Nukus 200 MVt (2-bosqich) shamol elektr stansiyasi ("Loyiha") uchun tayyorlangan. Loyiha O'zbekiston Respublikasining Qoraqalpog'iston Respublikasida, Qorao'zak va Beruniy tumanlari oralig'ida, Sulton Uvays tog' tizmasi yaqinida joylashgan. Loyiha hududiga eng yaqin shaharlar Urganch (Xorazm viloyati, 57 km) va Nukus (Qoraqalpog'iston, 120–140 km) hisoblanadi.

Loyiha ACWA Power Beruniy Wind FE MChJ (Loyiha kompaniyasi) tomonidan amalga oshiriladi va quyidagi obyektlarni ishlab chiqish, moliyalashtirish, qurish, foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi:

- Envision kompaniyasining 26 ta shamol turbina generatorlaridan iborat shamol elektr stansiyasi komponentlari.
- Quvvati soatiga 100 MVt o'zgaruvchan tokli Elektr Energiya Saqlash Tizimi (EEST).
- Umumiy uzunligi 20,5 km bo'lgan ichki kirish yo'llari, jumladan, taklif etilayotgan Loyihani Nukus-1 kommutatsiya stansiyasi hududi bilan bog'lovchi 4,2 km kirish yo'li.
- Uzunligi 44 km va kuchlanishi 220 kV bo'lgan elektr uzatish havo tarmog'i (EUHT). – Loyiha kompaniyasi EUHTni quradi, biroq uning ekspluatatsiyasi va unga texnik xizmat ko'rsatish "O'zbekiston Milliy Elektr Tarmoqlari" AJga topshiriladi.
- Mavjud Beruniy nimstansiyasini uning quvvatini oshirish maqsadida kengaytirish.

Taklif etilayotgan Loyiha obyektlarining joylashuvi quyidagi rasmda keltirilgan.



Qisqacha bayonot 1-rasmi: Loyiha joylashuvi va obyektlari

Loyiha Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB), Osiyo Infratuzilma Investitsiyalari Banki (OIIB) hamda Niderlandiya Tadbirkorlikni Rivojlantirish Banki (FMO) tomonlaridan moliyalashtirishni jalb etishni rejalashtirmoqda. Milliy qonunchilik va kreditorlar siyosatlarini o'rtasida batafsil tahlil o'tkazilib, asosiy tafovutlar aniqlangan hamda ushbu tafovutlarni bartaraf etish uchun Loyiha tomonidan ko'riladigan choralar belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur YO'TTTR OTB, OIIB va Xalqaro moliya korporatsiyasining majburiy bo'lmagan yer o'zlashtirish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda EUHT bo'ylab jismoniy ko'chirishning oldini olish hamda Loyihani tayyorlash va amalga oshirish jarayonida Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar bilan mazmunli maslahatlashuvlar o'tkazish va ularning faol ishtirokini ta'minlash, shu jumladan, Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (GRM)ga murojaat qilish imkoniyatini o'z ichiga olgan choralar bayon etilgan. Loyiha ta'siri ostidagi uy xo'jaliklari uchun so'nggi muddat sanasi (cut-off date) e'lon qilingan hamda ta'sir ostidagi aktivlar, ekinlar va daraxtlar inventarizatsiyasi o'tkazilgan. Shuningdek, mazkur reja, to'liq tiklash qiymati asosida kompensatsiya berishni nazarda tutuvchi batafsil huquqlar matritsasi, zaif va sezilarli darajada ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari uchun qo'shimcha yordam choralari, hamda rasmiy va norasmiy yer foydalanuvchilari, jumladan, uy xo'jaliklaridagi ayollar uchun turmush tarzini tiklash dasturlarini o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, ushbu YO'TTTR loyihasiga monitoring va baholash tizimi ham kiritilgan bo'lib, bu reja talablari bajarilishini ta'minlash uchun yutuqlarni kuzatish imkonini beradi.

LOYIHANING YERGA BO'LGAN TALABLARI VA TA'SIRLARI

MUHIM ESLATMA

2025-yil 30-yanvardagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga muvofiq, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi tugatildi hamda uning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi huzuridagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Yaylov xo'jaligi boshqarmasi va "O'zipaksanoat" AJ (pillachilik) tashkil etildi.

Bundan tashqari, "Beruniy Karakul" MChJ bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar natijasida aniqlanishicha, shamol elektr stansiyasi hududidagi ularning 49 yillik ijara shartnomasi 2025-yil mart/aprel oylarida bekor qilingan. Qayd etilishicha, 2024-yil fevral oyidan boshlab va ushbu YO'TTTRni tayyorlash jarayoni davomida 2025-yil mart oyigacha o'tkazilgan maslahatlashuvlar "Beruniy Karakul" MChJ shamol elektr stansiyasi hududidagi yer maydonlaridan past unumdorlik hamda qish va yoz fasllaridagi keskin ob-havo sharoitlari

sababli foydalanmaganini ko'rsatdi. Ushbu ijara o'zgarishi norasmiy yer foydalanuvchilarining yerga kirish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatmaydi va ular undan foydalanishda davom etadilar.

Shamol elektr stansiyasi hududiga oid tadqiqotlar "Beruniy Karakul" MChJ ijarasi bekor qilinishidan oldin o'tkazilganligi va hududdan foydalanuvchi norasmiy chorvadorlarga 2025-yil aprel oyida kompensatsiya to'langanligi sababli, quyidagi bo'limlarda kontekst uchun hali ham lpakchilik qo'mitasi va "Beruniy Karakul" MChJ nomlari keltirilgan. Shu bilan birga, Loyiha haqida xabardor qilish maqsadida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi hamda "O'zipaksanoat" AJ bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazildi. Ushbu tashkilotlar YO'TTTRni amalga oshirish jarayonida ham jalb etiladi.

Yangi tashkilotlarga oid havolalar tegishli joylarda keltirilgan.

Shamol elektr stansiyasi

Loyihaga 6500 gektar yer maydoni ajratilgan bo'lib, 2025-yil yanvar holatiga ko'ra ushbu yer O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tasarrufiga o'tgan. 2024-yil fevral oyidan boshlab o'tkazilgan tadqiqotlar va maslahatlashuvlar vaqtida esa ushbu yer lpakchilik va jun sanoatini rivojlantirish davlat qo'mitasi tasarrufida bo'lgan va u 266340 gektarlik yirik ijara hududining bir qismi sifatida "Beruniy Karakul" MChJga 49 yil muddatga ijaraga berilgan edi. Biroq, 2025-yil yanvar oyida yaylovlardan oqilona foydalanish to'g'risidagi Prezident farmoni qabul qilingach, "Beruniy Karakul" MChJ bilan tuzilgan ijara shartnomasi 2025-yil mart/aprel oylarida bekor qilingan.

Loyihaga ajratilgan 6500 gektar yer maydonining atigi 102,38 gektari (1,58% dan kam) qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida bevosita Loyiha faoliyatlari uchun foydalaniladi. Qolgan yer maydonlari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi boshqaruvida yaylov sifatida foydalanishda davom etadi, bu esa Loyihaning yer resurslariga ta'sirini kamaytiradi. Loyiha kompaniyasi Energetika vazirligi bilan Yer ijarasi shartnomasini tuzadi va ushbu ijara Loyiha doimiy inshootlarining haqiqiy egallagan maydoniga asoslanadi. Bundan tashqari, vaqtinchalik inshootlar uchun yer servituti buyrug'i rasmiylashtiriladi.

2025-yil aprel holatiga ko'ra, "Beruniy Karakul" MChJ ijarasi bekor qilingani sababli yer maydoni hech bir tashkilotga ijaraga berilmagan, bundan tashqari, ushbu ijara doirasida amalda yaylov faoliyati olib borilmagan. Shunga qaramay, Loyiha hududida bahordan yoz boshigacha, ob-havo sharoitlariga qarab, olti nafar norasmiy chorvador chorva boqishi aniqlangan. Ushbu chorvadorlar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar ularning hududda faqat vaqtinchalik

inshootlarga ega ekanini hamda yaylov mavjudligiga qarab joylarini (Loyiha hududi ichida va undan tashqarida) o'zgartirib turishini ko'rsatdi.

Chorvadorlarning uy xo'jaliklarida aniqlangan Loyiha ta'siri ostidagi shaxslarning umumiy soni 28 nafarni tashkil etadi. Bundan tashqari, o'rtacha uy xo'jaligi hajmidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnomada ishtirok etishdan bosh tortgan bir chorvador (H2) uy xo'jaligida taxminan yana 7 nafar noma'lum Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar mavjud deb hisoblanadi. 2024-yil aprel va sentyabr oylarida "Beruniy Karakul" MChJ bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar natijalari hududdan boshqa chorvadorlar ham foydalanishi mumkinligini ko'rsatgan, biroq ular Loyiha maydoniga tashriflar davomida ekologik va ijtimoiy guruhlar tomonidan aniqlanmagan.

Loyiha natijasida iqtisodiy ko'chirishga duch keladigan olti nafar norasmiy chorvadordan uchtasi (H4, H5 va H6) sezilarli darajada ta'sirga uchraydi. Ularning chorva uchun boshpanalari (qo'ra) 50 metrli EUHT muhofaza zonasi tashkil etilishi sababli ko'chirilishi kerak bo'ladi. Ushbu inshootlarni EUHT muhofaza zonasi hududidan tashqarida, ular foydalanadigan va ta'sirlanmagan suv qudug'i yaqiniga ko'chirish mumkin. Shu bilan birga, shamol elektr stansiyasi hududidan yaylov sifatida foydalanish imkoniyati Loyiha tomonidan sezilarli darajada cheklanmaydi. Mazkur uch chorvador uy xo'jaliklarida jami 15 nafar Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar mavjud.

Sezilarli ta'sirga uchragan shaxslardan tashqari, barcha olti chorvador uy xo'jaligi "zaif" toifaga kiritiladi, chunki ular yer maydonidan rasmiy huquqsiz (norasmiy) foydalanadi. Bundan tashqari, H4 va H3 uy xo'jaliklarida surunkali kasallik yoki nogironligi mavjud a'zolar bor. Ushbu oltita zaif uy xo'jaligida aniqlangan va taxminiy Loyiha ta'siri ostidagi shaxslarning umumiy soni 35 nafarni tashkil etadi. Shundan 5 ta uy xo'jaligi aniq bo'lib, ularda 28 nafar Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar mavjud, bitta uy xo'jaligi esa noma'lum bo'lib, unda taxminan 7 nafar Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar bor deb baholandi.

EUHT va Beruniy nimstansiyasini kengaytirish

44 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli elektr uzatish havo tarmog'i (EUHT) qurilishi iqtisodiy ko'chirishga olib keladi. Minora (tayanch ustunlar) qurilishi hamda 50 metrli muhofaza zonasi doirasidagi cheklovlar sababli 7,12 gektar yer maydonining doimiy egallanishi kutilmoqda. Loyiha ta'siri ostidagi shaxslarning aksariyati qurilish davrida qisqa muddatli, vaqtinchalik ta'sirga duch keladi va keyinchalik yer faoliyatlarini qayta tiklaydi, biroq EUHT ostida ekilishi mumkin bo'lgan daraxt turlariga nisbatan cheklovlar saqlanib qoladi. Bundan tashqari, muhofaza zonasi hududida hech qanday inshoot qurilishiga ruxsat etilmaydi. EUHT minoralari egallagan maydon (muhofaza zonasidan tashqari) taxminan 7,12 gektarni tashkil etadi. Qayd

etilishicha, EUHTning taxminan 22 km qismi ekin maydonlari va aholi yashash hududlari orqali o'tadi, qolgan qismi esa cho'l hududlaridan o'tadi.

Shuningdek, mavjud Beruniy nimstansiyasini kengaytirish uchun taxminan 0,7 gektar yer maydoni talab etiladi, shundan 0,43 gektari sug'orilmaydigan yer (irrigatsiya kollektorini o'z ichiga oladi), 0,27 gektari esa sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yeridir. Ushbu kengaytirish doimiy yer egallanishini talab qiladi va xususiy korxona (PE4) tasarrufidagi yerga ta'sir ko'rsatadi.

Shamol elektr stansiyasi va EUHT ta'siri ostidagi ma'lum va noma'lum Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Qisqacha bayonot 1-jadvali: Shamol elektr stansiyasi va EUHT ta'siri ostidagi ma'lum Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar

TASHKILOT TURI	LOYIHA TA'SIR OSTIDAGI JAMI UY XO'JALIKLARI	LOYIHA TA'SIR OSTIDAGI JAMI SHAXSLAR	ZAIF TOIFASIDAGI TA'SIR OSTIDAGI UY XO'JALIKLARI	ZAIF TOIFASIDAGI TA'SIR OSTIDAGI SHAXSLAR	SEZILARLI TA'SIR OSTIDAGI UY XO'JALIKLARI	SEZILARLI TA'SIR OSTIDAGI SHAXSLAR
Shamol elektr stansiyasi						
6 nafar norasmiy chorvadorlar (H1–H6)	6	35	6	35	0	0
Davlat tashkiloti 1 – Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi	Mavjud emas					
EUHT						
Davlat tashkilotlari – 8 ta	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, "O'zipaksanoat" AJ, Beruniy tuman hokimligi, Davlat o'rmon xo'jaligi agentligi, Beruniy tuman irrigatsiya va melioratsiya bo'limi, "O'ztelekom" AJ, Ellikqala tuman yo'l xo'jaligi unitar korxonasi va Beruniy tuman yo'l xo'jaligi unitar korxonasi					
Xususiy korxonalar (XK)	3	-	-	-	1	-
Fermer xo'jaliklari	18	137	5	39	2	14

Chorvadorlar – shamol elektr stansiyasi hududidan foydalanayotgan chorvadorlar	Raqam shamol elektr stansiyasi bo'limiga kiritilgan				3	15
Dehqon xo'jaliklari	20	143	5	42	17	125
Tijorat	2	12	0	0	2	12
Yashash uchun yer uchastkasi / tomorqa	8	38	6	28	5	23
Shamol elektr stansiyasi va EUHT bo'yicha jami Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari / Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar	54	365	22	144	30	189
Davlat tashkilotlari	8					
Xususiy korxonalar	3					
Shamol elektr stansiyasi va EUHT bo'yicha jami (Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari+ davlat tashkilotlari + xususiy korxonalar)	65					

Xulosa qilib aytganda, 54 ta aniqlangan Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari mavjud. Ulardan 46 tasi ijtimoiy-iqtisodiy so'rovlarda ishtirok etgan bo'lib, jami 309 ta aniqlangan Loyiha ta'sir

ostidagi shaxslarni tashkil etadi. Ishtirok etmagan 8 ta uy xo'jaligi uchun 56 ta Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar mavjudligi taxmin qilinadi. Shunga ko'ra, jami aniqlangan va taxminiy Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari soni 54 tani tashkil etadi, ular 365 ta Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarni qamrab oladi. Jiddiy ta'sir ko'rganlar bo'yicha esa 30 ta aniqlangan jiddiy Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari mavjud bo'lib, ular jami 189 ta Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarni tashkil etadi.

Bundan tashqari, 8 ta davlat tashkiloti va 3 ta xususiy korxona mavjud.

Ishchilar bo'yicha 198 nafar aniqlangan doimiy ishchi va 1289 nafar aniqlangan mavsumiy ishchi mavjud. Mavsumiy ishchilarning aniq soni belgilab bo'lmadi, chunki ular qishloq xo'jaligi mavsumiga hamda kanaldagi suv mavjudligiga qarab jalb etiladi. Bundan tashqari, ishchi uy xo'jaliklari va Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarning umumiy soni noma'lum. Ushbu ishchilarni yollagan Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar shuni ko'rsatdiki, Loyiha faoliyati natijasida hech bir ishchi o'z ish joyini yo'qotmaydi. Shu sababli, ishchilarning hech biri ishini yo'qotish xavfi ostida emas. Biroq, huquqlar matritsasida Loyiha sababli ish joylari yo'qolishi holatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ishchilar uchun tegishli bandlar nazarda tutilgan.

LOYIHA TADQIQOT VA QURILISH ISHLARINING BOSQICHMA-BOSQICH AMALGA OSHIRILISHI

Loyiha bo'yicha aholini ro'yxatga olish, inventarizatsiya hamda ijtimoiy-iqtisodiy so'rovlar 2024-yil aprel oyida amalga oshirildi. Ular kredit beruvchilar (moliyalashtiruvchi tashkilotlar) talablari asosida Shamol elektr stansiyasi hududi va EUHT yo'nalishi bo'ylab yer ijarachilari hamda yer foydalanuvchilarini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Biroq, 2025-yil boshida Beruniy tuman hokimligi 2024-yil aprel oyidagi "so'ngi muddat sanasi"dan keyin ham fermerlarga yangi yer ijaralarini berishda davom etgani aniqlandi. Bundan tashqari, 2024-yil aprelda aniqlangan Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar tomonidan ilgari foydalanilgan ayrim yerlar hokimlik tomonidan qayta taqsimlangan bo'lib, bu ularning yer foydalanish holatiga ta'sir ko'rsatdi va qo'shimcha Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida Ijtimoiy guruh 2025-yil yanvar oyida asosiy manfaatdor tomonlar, jumladan Beruniy tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi hamda Kadastr bo'limi bilan maslahatlashuvlar o'tkazdi. Ushbu maslahatlashuvlar natijasida yangi ijarachilarga yerlar elektron auksion orqali ajratilgani tasdiqlandi, bu esa qo'shimcha so'rovlar va maslahatlashuvlarni talab qildi. Mazkur qo'shimcha so'rov va maslahatlashuvlar 2025-yil aprel oyida amalga oshirildi.

2024-yil aprel oyida Loyiha tomonidan o'tkazilgan so'rovlardan so'ng Beruniy tuman hokimligi tomonidan joriy etilgan ijara o'zgarishlari barcha Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarni qamrab olmaganligi sababli, Loyiha moliyalashtiruvchilari bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar

natijasida Loyiha kompaniyasi hamda Muhandislik, xarid (ta'minot) va qurilish pudratchisi uchun yerga kirish huquqini bosqichma-bosqich berish yondashuvini qo'llash mumkinligi belgilandi. Ushbu yondashuv Cheklangan ishlarni boshlashga ruxsat faoliyatlari bo'yicha barcha ijarachilar va/yoki yer foydalanuvchilarining roziligiga, shuningdek ijara o'zgarishlari yoki Loyiha dizaynidagi yangilanishlar ta'siriga uchramagan Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar uchun kompensatsiya to'lovlarining amalga oshirilishiga bog'liq edi. Ushbu yondashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan:

- **0-bosqich:** Ushbu bosqich "Ishni boshlashga cheklangan ruxsat" doirasidagi past ta'sirli faoliyatlarni qamrab olgan bo'lib, 1- va 2-bosqichlarda aniqlangan ijarachilar va/yoki yer foydalanuvchilarining yozma roziligiga asoslangan holda amalga oshirilgan.
- Barcha Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar "Muhandislik, xarid (ta'minot) va qurilish" pudratchisiga Ishni boshlashga cheklangan ruxsat" doirasidagi faoliyatlar uchun yerga kirish huquqini beruvchi rozilik xatlarini imzolagan bo'lib, Loyiha kompaniyasi tomonidan kelishilgan muddatlarda kompensatsiya to'lanishi bo'yicha aniq majburiyat berilgan.
- **1-bosqich:** 2024-yil aprel oyidagi so'nggi muddat sanasi va unga bog'liq so'rovlardan so'ng yer ijara yoki foydalanish holati o'zgarmagan Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarga tatbiq etiladi. Ushbu bosqich 38 ta Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklarini qamrab olgan bo'lib, ular 255 ta Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarni tashkil etadi, shuningdek 6 ta davlat tashkiloti va 2 ta xususiy korxonani o'z ichiga oladi.
- Ushbu Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar 2025-yil aprel oyida o'z kompensatsiya paketlarini oldilar.
- **2-bosqich:** 2024-yil aprel oyidagi so'nggi muddat sanasidan keyin yer foydalanish holati hokimlik tomonidan yangilangan yoki yangi yerlar ajratilgan ijarachilarga tatbiq etiladi. Shuningdek, ushbu bosqich EUHT yo'nalishi bo'yicha Loyiha dizaynidagi o'zgarishlar hamda Beruniy nimstansiyasining kengaytirilishi natijasida ta'sir ko'rgan Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarni ham o'z ichiga oladi. 2-bosqich hududlarida kompensatsiya to'liq to'lanmaguncha qurilish ishlari cheklanadi. Ushbu bosqich 16 ta Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari qamrab olgan bo'lib, ular 110 ta Loyiha ta'sir ostidagi shaxslarni tashkil etadi, shuningdek 1 ta xususiy korxona va 8 ta davlat tashkilotini o'z ichiga oladi.

IJARAGA OLINGAN YERDAN UCHINCHI SHAXSLAR TOMONIDAN FOYDALANISH

EUHT yo'nalishi bo'ylab bir qator yer foydalanuvchilar boshqalarga rasmiy ravishda ijaraga berilgan, ammo amalda oila a'zolari yoki do'stlari tomonidan foydalanilayotgan dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarini ekin ekish uchun foydalanadilar. O'tkazilgan maslahatlashuvlar va imzolangan tasdiqlovchi hujjatlar ushbu ijarachilar yerdan daromad olmasligini hamda yer xo'jaligini faol boshqarmasligini tasdiqladi. 2025-yil 25-fevraldan 13-martgacha o'tkazilgan uchrashuvlar davomida ham so'nggi muddat sanasidan oldingi, ham keyingi ijarachilar yer foydalanish huquqlarini amaldagi yer foydalanuvchilariga o'tkazganliklarini tasdiqlovchi rozilik shakllarini imzoladilar. Shuningdek, ular ta'sirga uchragan yerlar bo'yicha hech qanday nizolar mavjud emasligini hamda Loyiha doirasida kompensatsiya talab qilmasliklarini tasdiqladilar. Shu sababli, ushbu ijarachilar va ularning uy xo'jaliklari Loyiha ta'sirga uchramaydi va Loyiha ta'sir ostidagi uy xo'jaliklari yoki Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar sifatida tasniflanmaydi.

Yer masalasi nizosi

Oltita dehqon xo'jaligida yer foydalanishi bo'yicha nizo mavjud. Ulardan beshta xo'jalik (DF12a, DF12b, DF12c, DF12d va DF12e) amaldagi yer foydalanuvchisi yuzasidan nizoga jalb qilingan. Masala shundan iboratki, yer haqiqatan ham ijara egalari (DF12a, DF12b, DF12c, DF12d, DF12e) tomonidan foydalanilayaptimi yoki ushbu Loyiha ta'sir ostidagi shaxslar nomidan ijara to'lovini amalga oshirganini va shart asosida yerdan foydalanish huquqiga ega ekanini da'vo qilayotgan kooperativ tomonidan foydalanilayaptimi — shu masala bahsli hisoblanadi.

Bundan tashqari, F14 ostidagi norasmiy yer foydalanuvchisi (ushbu hisobotda F14a deb yuritiladi) o'zini F14 fermer xo'jaligi tarkibidagi dehqon xo'jaligidan foydalanib kelganini va kompensatsiya olish huquqiga ega ekanini da'vo qilib, murojaat qilgan.

Qayd etilishicha, yuqoridagi da'volar 2025-yil aprel oyidagi so'nggi muddat sanasidan keyin bildirilgan bo'lib, hozirda Loyiha uchun maxsus shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali, Yer ajratib olish va turmush darajasini tiklash rejasi qo'mitasi ko'magida hal etilmoqda.

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH TALABLARI

YO'TTTR 11-bobda ta'sir ostidagi turmush vositalari aktivlari va/yoki resurslariga asoslangan batafsil huquqlar matritsasini o'z ichiga oladi. Ushbu matritsa, shuningdek, zaif uy xo'jaliklari uchun ularning aniq ehtiyojlariga mos ravishda turmush tarzini tiklash nafaqasi orqali qo'shimcha yordam choralari ham qamrab oladi. Sezilarli darajada ta'sirlangan uy xo'jaliklari

esa 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-sonli Prezident farmonida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoriga asoslangan holda bir martalik stipendiya oladilar.

Bundan tashqari, barcha Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar turmush tarzini tiklash dasturlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu dasturlar turli mutaxassislarni jalb qilgan holda, jumladan, ehtiyojlarni baholash asosida texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, resurslar va tadbirlar rejasini tuzish hamda zaruriy monitoring va agrotexnik maslahat xizmatlarini ta'minlash maqsadida yaratiladi. Mazkur dasturlar barcha Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar uchun taqdim etiladi, bunda ayniqsa zaif guruhlar, ayollar va Loyihadan sezilarli darajada ta'sirlangan shaxslarga alohida e'tibor qaratiladi.

YO'TTTR loyihasini amalga oshirish uchun umumiy taxminiy byudjet, 20% zaxira mablag'ini hisobga olgan holda, 12 595 897 604,25 so'mni (taxminan 975 203,01 AQSh dollari) tashkil etadi. Ushbu summalar Prezident farmoniga muvofiq yerni o'zlashtirish bo'yicha cheklov joriy etilgandan so'ng o'tkaziladigan qo'shimcha tadqiqotlar natijalariga ko'ra yana qayta ko'rib chiqiladi. Byudjetdagi har qanday yangilanishlar Loyiha tomonidan allaqachon ko'zda tutilgan 20% zaxira mablag'idan tashqari amalga oshiriladi.

Loyiha ishlab chiquvchisi YO'TTTRning dastlabki va yakuniy variantlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yetakchi rol o'ynaydi. Loyiha kompaniyasi darajasida mas'uliyatlar asosan yuqori boshqaruv va YO'TTTRga mas'ul texnik xodimlar o'rtasida taqsimlanadi. Eng muhim xodimlar qatoriga Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar menejeri, Ijtimoiy masalalar menejeri hamda Jamiyat bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis kiradi. Bundan tashqari, YO'TTTR doirasida uni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi maxsus qo'mita tashkil etiladi. Ushbu qo'mitaga Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar vakillari 2025-yil 4–6 mart kunlari o'tkazilgan YO'TTTRni oshkor qilish yig'ilishlari davomida konsensus asosida saylangan. Ular: C2, PE2, DF4, F7, H5, R6 (ayol) va SO3.

YO'TTTRni amalga oshirish Loyiha kompaniyasi tomonidan mazkur reja doirasida belgilangan monitoring va baholash ko'rsatkichlari asosida doimiy nazorat qilinadi. Loyiha kompaniyasi EPC (loyihalash, yetkazib berish va qurilish) pudratchisiga yerga kirish huquqi berilishidan oldin barcha tegishli Loyiha ta'siri ostidagi shaxslarlarga kompensatsiya to'liq va belgilangan muddatlarda to'langanini ko'rsatuvchi hisobotlarni kreditorlarga taqdim etadi. Ichki monitoring YO'TTTRning amalga oshirish jarayonini baholaydi va zarur bo'lsa tuzatish choralari aniqlaydi. Kompensatsiya jarayoni yakunlangunga qadar har chorakda monitoring hisobotlari kreditorlarga taqdim etiladi, undan so'ng esa turmush tarzini tiklash dasturlari amalga oshirilishi davrida yarim yillik hisobotlar taqdim etiladi.

Bundan tashqari, kompensatsiya va qo'llab-quvvatlash choralarining asosiy qismi amalga oshirilgach, Oraliq Muvofiqlik Auditi o'tkaziladi va unda Loyiha ta'siri ostidagi shaxslarlarning

turmush tarzini tiklashdagi faoliyat baholanadi. Ushbu audit natijalariga ko'ra kreditorlar qo'shimcha choralar zarurligini aniqlaydi. Yakuniy bosqichda esa, zarur deb topilganda, Yakuniy Audit o'tkazilib, YO'TTTR maqsadlariga erishilganligi hamda barcha Loyiha ta'siri ostidagi shaxslarlarning turmush tarzlari tiklangan yoki yaxshilanganligi baholanadi. Ushbu natijalar kreditorlarga taqdim etilib, qo'shimcha choralar zarur yoki yo'qligi aniqlanadi.